

## INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

*Diyarov Akmal To'lqin o'g'li*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

### ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ

### САДОВОДЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА

### АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*Дияров Акмал Тулкин угли*

*Преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского  
государственного университета*

### LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF HORTICULTURAL TERMS IN ENGLISH

*Diyarov Akmal To'lqin o'g'li*

*Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand state university*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlarining leksikografik talqini va tarjima jarayonidagi muammolarni o'rGANADI. Bugungi globallashuv davrida bog'dorchilik sohasining jadal rivojlanishi, shu bilan birga, bu sohadagi terminologiyaning tez o'zgarishi va yangilanib borishi zaruratini keltirib chiqarmoqda. Maqolada ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi bog'dorchilik terminlarining tarjima va leksikografik talqinidagi farqlar, shuningdek, sun'iy intellekt platformalarining tarjima jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** bog'dorchilik terminologiyasi, leksikografiya, tarjima, sun'iy intellekt, semantik rivojlanish, tarjima lug'atlari, mikrostruktura, ingliz tili.

**Аннотация:** Эта статья рассматривает лексикографическое толкование садоводческих терминов на английском языке и проблемы, возникающие в процессе перевода. В условиях глобализации быстрый рост садоводческой отрасли привел к быстрому изменению и обновлению соответствующей терминологии. В статье анализируются различия в переводе и лексикографическом толковании садоводческих терминов между английским и узбекским языками, а также роль платформ искусственного интеллекта в процессе перевода.

**Ключевые слова:** терминология садоводства, лексикография, перевод, искусственный интеллект, семантическое развитие, двухязычные словари, микроструктура, английский язык.

**Annotation:** This article examines the lexicographic interpretation of horticultural terms in the English language and the challenges encountered in the translation process. In the current era of globalization, the rapid development of the horticultural sector has led to the swift evolution and updating of relevant terminology. The article analyzes the differences in the translation and lexicographic interpretation of horticultural terms between English and Uzbek, as well as the role of artificial intelligence platforms in the translation process.

**Key words:** horticultural terminology, lexicography, translation, artificial intelligence, semantic development, bilingual dictionaries, microstructure, English language.

#### **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).**

Hozirgi globallashuv davrida bog'dorchilik sohasining jadal rivojlanishi sohaviy terminlarning ham tez sur'atlarda yangilanib borishiga sabab

bo'lmoqda. Bog'dorchilik terminologiyasi har bir millatning madaniy va iqtisodiy shakllanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan soha sifatida o'ziga xos leksik qatlamni tashkil etadi. Ingliz va



E-mail:

[diyarov.tulkin@bk.ru](mailto:diyarov.tulkin@bk.ru)

Orcid: 0009-0008-4027-1506

o‘zbek tillari o‘rtasida bog‘dorchilik terminlarining leksikografik talqini ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb muammo bo‘lib, ushbu terminlarning izohli va tarjima lug‘atlarida to‘g‘ri aks ettirilishi soha rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).** Tarjima lug‘atlari (ya’ni ikki tilli lug‘atlar)ning mohiyati bir tilli lug‘atlardan tubdan farq qiladi. Bir tilli lug‘atlarda foydalanuvchi bir til doirasida tushunchalarning mazmuni va zarurat tug‘ilganda, lingvistik (fonetik, morfologik va sintaktik) jihatlari yuzasidan ma’lumot oladi. Tarjima lug‘atlarida esa ikki va undan ortiq til madaniyati va uning lug‘aviy birliklari mazmuni, leksik-semantik hamda uslubiy-sintaktik xususiyatlariga e’tibor qaratiladi. Sodda qilib aytganda, tarjima lug‘atlarining asosiy vazifasi foydalanuvchiga notanish bo‘lgan tushuncha yoki ma’lumotni unga tanish bo‘lgan til imkoniyatlari doirasida talqin qilishdan iborat va aksincha.

Tarjima lug‘atlarining ahamiyati foydalanuvchining aktiv (yozma yoki og‘zaki axborot yaratish) yoki passiv (yozma yoki og‘zaki axborotni talqin etish) til operatsiyalarida namoyon bo‘ladi. Bunda tarjima lug‘atlarining turi ham farqlanadi. Mavjud nisbatan kam sonli tarjima lug‘atlarining aksariyati passiv lug‘atlar hisoblanib, ular amaliy nutq yaratish jarayonida yetarli samaradorlikni ta’minlay olmaydi. Bu cheklovlar ularning mikrostruktura tuzilishi va xususiyatlari bilan bog‘liq. Lug‘at mikrostrukturasi elementlari va ularning keltirilish tartibi lug‘atning mohiyati va funksiyasini belgilaydi.

Lug‘at mikrostrukturasini unga yuklangan vazifaga muvofiqlashtirish uchun leksikograf olim o‘zini ma’lum passiv yoki aktiv nutqiy vaziyatlarda harakat qilayotgan foydalanuvchi o‘rniga qo‘yib ko‘rishi lozim. Bunday yondashuv orqali lug‘atning qaysi xususiyatlari amaliy qo‘llanishda samarali natija berishini aniqlab, yuqori saviyali leksikografik mahsulot yaratish imkoniyati tug‘iladi.

**MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**  
Ikki tilli lug‘atlar so‘z mazmunini tushuntirishi yoki izohlashi kerak emas, ular shundoq olib, ma’lum kontekstga qo‘llanganda, silliq tushadigan va to‘liq mazmun kasb etadigan leksemalar shaklidagi tarjima ekvivalentlarni taklif qilishi kerak [2]. Bu ularga qo‘yiladigan asosiy talabdir. Keyingi ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan masala, bog‘dorchilik

terminlari semalarining lug‘atda berilishi tartibiga taalluqli. Bu leksikografiyaning ko‘plab bahsmunozaralarga sababchi bo‘lgan muammolaridan sanaladi. Jahon leksikograflari jamiyatida so‘zning mayjud semalarini lug‘atlarda keltirishning quyidagi uch metodi farqlanadi:

*Qo‘llanilish chastotasiga ko‘ra.* Bu metodni qo‘llash leksikograflardan so‘zlarning turli uslub va hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilish ko‘lamiga oid o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga murojaat etishni yoki muqobil tadqiqotlarni olib borishni talab etadi. Lug‘atshunos olim uchun kichikroq ko‘lamdagi tadqiqot o‘tkazishning yana bir usuli til korpusi namunalarini o‘rganib, tahlil qilib, jamlab hamda umumlashtirib, ishonchli xulosalarni qo‘lga kiritish hisoblanadi. Bu tajriba ilk marotaba mashhur takomillashgan Cobuild lug‘atini yaratishda qo‘llanilgan. Mazkur usulni *blossom* leksemasining leksikografik talqini namunasida ko‘ramiz:

1. n. *Blossom* – bu daraxtda meva paydo bo‘lishidan oldin ochiladigan gullardir.

*The cherry blossom came out early in Washington this year.*

Syn. flower, bloom, bud, efflorescence

2. v. *Blossom* – unib ulg‘ayish, rivojlanish. Shaxs yoki narsa unib rivojlansa, jozibali holatga kelib qoladi.

*Why do some people take longer than others to blossom? [VERB]*

*What began as a local festival has blossomed into an international event. [VERB + into]*

*The pair have tried to keep their blossoming relationship under wraps. [VERB-ing]*

Syn. develop, bloom, grow, mature

Mazkur terminning ikkinchi semasi turli leksemalar bilan sinonim bo‘lishini inobatga olib, boshqa uslubdagi gaplarda ifodalanishi ikkinchi misolda keltirib o‘tildi. Xuddi shunday uslub jihatdan turli holatlarda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan terminlardan yana biri *bud*.

1. n. *Bud* (kurtak) - bu daraxt yoki o‘simgikda paydo bo‘ladigan va keyinchalik barg yoki gulga aylanuvchi kichik, uchi o‘tkir bo‘rtma.

*Rosanna’s favourite time is early summer, just before the buds open.*

Ushbu termin keltirilgan holatda bog‘dorchilik termini sifatida qo‘llanadi va sinonimlari uchratilmaydi.

2. v. *Bud* – *ushbu ma'noda odatda davomiy shaklda qo'llanilib, daraxt yoki o'simlikning kurtak chiqarish jarayonini harakat tarzida ifodalaydi.*

*The leaves are budding on the trees below.*

*Syn. Develop, grow, shoot, sprout.*

Keltirilgan ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, *bud* termini turli holatlarda qo'llanilishi mumkin ekan (hattoki og'zaki va norasmiy uslubda ham). Ta'rifi keltirilayotgan *soil* leksemasi haqida gap ketganda quyidagi ta'riflarni COBUILD lug'atida kuzatish mumkin:

1. n. *Soil* – *tuproq* – *bu yer yuzasida joylashgan va o'simliklar o'sishi uchun asos bo'luvchi modda.*

*We have the most fertile soil in Europe.*

*Syn: earth, ground, clay, dust*

2. n. "Tuproq" so'zini "Britaniya tuprog'i" kabi iboralarda ishlatalish mumkin, bu esa mamlakat hududiga ishora qiladi.

*The issue of foreign troops on Turkish soil is a sensitive one.*

*Syn: territory, country, land, region*

Mazkur lug'atda bog'dorchilik terminlarining ma'nolari eng keng qo'llanilishi holatidan eng kam qo'llanilish holatiga qarab joylashtirilgan. Bu tartib foydalanuvchi uchun qator qulayliklarga ega. Lug'at mikrostrukturasidan xabardor foydalanuvchi zarur bo'limgan holatda (ya'ni, so'zlarning kam qo'llanilish mazmuniga ehtiyoj bo'limganda) so'z ma'nolarining qatorini oxirigacha ko'rib chiqish shart emasligini anglaydi va bu orqali vaqtadan yutadi [5].

**NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).** Bog'dorchilik terminlari orasida bir nechta asosiy qo'llanilish mazmunlari va ularning atrofida shakllangan metaforik qo'llanilish holatlarining keltirilishi lug'atning ilmiy qimmatini oshiradi. Ko'pchilik an'anaviy hamda zamonaviy onlayn lug'atlar ham shu metoddan foydalanadi. Bunda so'zlarning asosiy mazmunlari ma'lum usul bilan belgilanadi (masalan, arab yoki rim raqamlari vositasida), ularning asosida shakllangan metaforik qo'llanilish holatlari esa boshqa farqli usul (masalan, lotin alifbosi kichik harflari yoki qavslari arab raqamlari vositasida) orqali asosiy ma'noning ichki strukturasi sifatida taqdim etiladi [4].

Bu tamoyilni mashhur o'zbek tilshunos olimi I.Qo'chqortoyev ham o'zining "So'z va uning agentligi" asarida ilmiy asoslab bergan. Olimning nazariy qarashlariga ko'ra, ko'p ma'nolilikning radial, zanjirsimon va radial-zanjirsimon kabi turlari farqlanadi. Bu konseptual yondashuv bog'dorchilik terminlarining mazmunlarini leksikografik talqin qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va terminlarning semantik taraqqiyotini tizimli tarzda aks ettirish imkonini beradi.

## XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Ushbu maqolada ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlari leksikografik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida mazkur sohadagi terminlarning shakllanishi, ularning lug'atlardagi ifodalananish usullari, semantik tarkibi va tarjima muammolari o'rganildi. Maqolada aniqlanishicha, bog'dorchilik terminlari ko'p hollarda ilmiy-texnik leksikaning tarmog'i sifatida shakllanadi va ular o'ziga xos soha xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz tilida ushbu terminlar aniq strukturaviy shakllarga ega bo'lib, ko'plab izohli, sohaviy va ikki tilli lug'atlar orqali qayd etilgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Jan Lui. Translation and the Role of National-Cultural Words. – Paris: Linguistics Press, 2018.
2. Jean-Louis Varelaire Dictionnaires et traduction de romans contemporains. – Belgique. 2014.
3. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
4. Norboev J. Chet tilidan tarjima qilishdagi lug'atning roli va ahamiyati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
5. Sager J. C. Language Engineering and Translation: An Introduction to the Computer Processing of Translation. – London: Routledge, 1990.
6. Shirinova R. Tarjima lug'atlarida madaniy axborotlar // Ilmiy axborotnoma. Filologiya, 2017, 2-son. – B. 23.